

INGLIZ VA O'ZBEK FOLKLORIDA MIFOLOGIK JANG TASVIRI

Kadirova Nargiza Arifovna

PhD, Buxoro Davlat Pedagogika Instituti

nzkd117@gmail.com

Nurulloyeva Shaxinabonu Utkirovna

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti

nurulloyevashaxinabonu@gmail.com

Annotasiya: *Xalq og'zaki ijodi har bir millatning asrlar davomida rivojlanib kelgan ilk adabiyotning end qadimgi namunasi bo'lib, xalqning, millatning asrlar davomidagi orzu-istaklari, maqsad va niyatlarini tasvirlay olish qudratiga ega bo'lgan so'zdir. Ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodida, o'xshash va farqli jihatlar juda ko'p bo'lib ularning har ikkisi millatlarning asrlar davomida yaratilgan tarixi, urf-odatlar va an'analarini batafsil yoritib beradi. Ushbu maqola ingliz hamda o'zbek folkloridagi mifologik jang motivini tasvirlab, har ikki xalq og'zaki ijodi namunalari orqali jang motivini tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *Folklor, xalq og'zaki ijodi, Alpomish dostoni, mifologik jang.*

"Og'zaki an'analar", "xalq og'zaki ijodi", va "xalq og'zaki adabiyoti" nomi bilan mashhur folklor atamasi ko'p yillik tarixga ega bo'y so'z bo'lib, xalqning, millatning asrlar davomidagi orzu-istaklari, maqsad va niyatlarini tasvirlay olish qudratiga egadir. Folklor termini birinchi marta 1846-yilda XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Tom's tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u ikki so'zdan iborat-"folk" xalq, "lore"-bilim, donishmandlik, donolik degan ma'nolarni anglatadi, ya'ni "xalq donishmandligi" demakdir. Folklor termini xalqaro atama bo'lib turli xalqlarda turlicha ma'noda qo'llaniladi. Har bir madaniyatning o'ziga xos folklori bor. Ammo folklorning nima ekanligi va uning qanday turlari mavjudligini aniqlay olish folklor namunalarini tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi. Folklorning atamasining ta'rifi: xalq og'zaki ijodi ikki so'zdan iborat: xalq, ya'ni mintaqa xalqi, ikkinchisi esa hikoya, "lore". Shuning uchun folklor ma'lum bir mintaqadagi odamlar tomonidan aytilgan hikoyalarni aks ettiradi. Folklor o'zining adabiy mavzulari bilan aholining qadriyatlarini, e'tiqodlari va afzal turmush tarzini belgilashi mumkin.

O'zbek va ingliz folklorida jang motivining ahamiyati juda katta. Jang tasvirlarini har bir folklor namunasida uchratish mumkin, jumladan Beowulf dostoni, Robin Hood, Alpomish, Go'rogli, Ravshan, Kuntug'mish, Shoh G'arib va Shohsanam va shu kabi bir qator namunalarda jang motivi bosh qahramonning xarakteri va jismoniy sifatlarini hamda voqealar rivojini jadallashtirish maqsadida sujetni yanada boyitib tinglovchining diqqatini o'ziga tortish uchun ham keng qo'llanilgan. Bu kabi xalq og'zaki ijodi namunalari aynan xalqning o'zi tomonidan yaratilganligi bois ham tasvir va uslub turlicha zero ma'lum bir hududda ayni tasvir vositalaridan foydalanilsa

boshqa hududda yaratilgan asar namunasida bunday uslubni uchratish amrimahol, yoki aksincha jang motivlari shu qadar o'xshash tarzdaki bazan bu usul orqali bosh qahramonning mardlik darajasini ham ko'rish mumkin. Har ikki xalq og'zaki ijodida ham insonlar g'oyaviy badiiy jihatdan bir narsani maqsad qilganligi, jang tasvirlarida ham sezilmay qolmaydi. Zero janglar asosan xalqning manfaatini himoya qilish, yurtini ozodlikka chiqarish, sevgi uchun kurash, qashshoq va ojizlarga yordam berish maqsadida qilingan va tasviriy uslubda bosh qahramonning ijobiy xislatlari va jismoniy jihatdan raqibiga qaraganda kuchli ekanligi kabi vositalardan foydalaniladi. Bizning ko'plab zamonaviy folklor hikoyalarmizda qarama-qarshi tomonlardagi odamlar turli xil axloqiy fazilatlarga ega va o'z qadriyatlari uchun kurashadilar. Bu o'zgarish yaxshi odam va yomon odam dixotomiyasida yotadi, bu yerda odamlar endi kechki ovqatni kim olishi yoki Troyalik Xelenni olish uchun emas, balki jamiyat qadriyatlarini kim o'zgartirishi yoki yaxshilashi uchun kurashadi. Yaxshi yigitlar o'zlari ishongan narsalari uchun turishadi va bir maqsad uchun o'lishga tayyor. Bu timsol bizning zamonaviy hikoyalarimizda, filmlarimizda, kitoblarimizda, hatto siyosiy metaforalarimizda shu qadar keng tarqalganki, ba'zida uning qanchalik yangiligini yoki naqadar g'alati ko'rinishini axloq yoki hikoya qilish nuqtai nazaridan ko'rish qiyin.

"Alpomish" dostoni va "Robin Gud" balladasi shu qadar ulkan mahorat bilan yaratilganki, har ikki asarda ham bosh qahramonning boshqa epizod va qahramonlarga nisbatan ruhiy va jismoniy jihatdan eng kuchli, barkamol va mard ekanligini ko'rish mumkin. O'zbek xalq og'zaki ijodida bu kabi badiiy qahramonlar ishtirokidagi jang tasvirlarini bo'rttirib ko'rsatish odatiy holga aylangan. Ingliz folklorida esa ko'proq reallikka e'tibor qaratiladi. Masalan, Alpomish dostonida, Alpomish o'zining do'sti Qorajon bilan uchrashuv sahnasida ular bir birlarini quchganda Qorajonning qovurg'alari sinib ketadi, bu bosh qahramon Alpomishning naqadar kuchli ekanligini ko'rsatadi. Yoki Alpomish kamondan o'q uzganda Asqar tog'ining bir tomoni qulab tushadi. Aslini olib qaraganda, kamondan o'q uzish orqali bir tog'ni yiqitish imkonsiz, ammo bu kabi go'zal mubolag'alar tinglovchini Alpomishning kuch qudratiga ishontirib qo'yadi.

Olishsang, sinaysan o'zing holingni,
O'z joningga sen qilmagin zulmni.
Bir arosat bunda maydon bo'ladi,
Turgan barcha tomoshani ko'radi,
Kimning kuni bitsa, bunda o'ladi,
Qolgan odam boyning qizin oladi.

O'z bek folklorida raqibini mag'lub qilish oldidan ogohlantirish usuli ham doimiy ravishda qo'llaniladi. Bu bosh qahramonning naqadar mard ekanligini ko'rsatadi. Ingliz folklorida uchraydigan jang tasviriga keladigan bo'lsak "Robin Gud" balladasida barmoq vazni ya'ni she'riy usul emas aksincha nasrdan keng foydalanilganiga guvoh bo'lish mumkin.

Xulosa qilib aytganda har ikki xalq og'zaki ijodi namunalari ham go'zal o'xshatish va metaforalarga boy hisoblanib, xalqning tarixi, asriy an'analari hamda urf odatlarini chuqur tasvirlaydi. O'zbek xalq og'zaki ijodida jang sahnasini she'riy usulda barmoq vaznidan foydalanib tasvirlash keng yoyilgan bo'lsa, ingliz xalq og'zaki ijodidagi Robin Gud balladasida nasrdan foydalanib tasvirlangan. Ammo shuni e'tiborga olish kerakki, har ikki xalqda ham maqsad va g'oyaviy mushtaraklik bir xil bo'lib, bu xalq og'zaki ijodining eng o'xshash jihati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Сулаймонова Ф. Шарқ ва ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
2. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и запад. – Ленинград: Наука, 1979
3. Алпомиш. II китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993
4. Kholmatov, O. U. U. (2021). NEW LITERARY VIEWS ON THE THEME OF WAR IN UZBEK LITERATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758), 2(11), 90-93
5. Eshonqulov J.S. Mythological image of a giant in Uzbek folklore Fundamentals and artistic interpretation: Philol. science diss. - T., 1996. p.24 31. Uzbek folk tales. - Tashkent, 2007.